

Date: 5th May-2026

“HOZIRGI GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSIYALARNING
TADBIRKORLIKDA TUTGAN O’RNI”

Qalqonov Arslon Quadrat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Menejment" fakul'teti "Biznesni
boshqarish" yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda hozirgi globallashuv sharoitida innovatsiyalarning biznes faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonining kuchayishi natijasida yuzaga kelayotgan raqobat muhitida korxonalar uchun innovatsion faoliyatning zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, innovatsiyalarning tadbirkorlikdagi asosiy faoliyat turlari, jumladan mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar ko‘rib chiqilgan hamda ularning biznes samaradorligiga ta’siri yoritilgan. Shuning bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari va zamonaviy texnologiyalarning biznes rivojida roli tahlil qilingan. Innovatsiyalarni joriy etishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijasida globallashuv sharoitida innovatsiyalar biznesning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlovchi muhim omil ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, globallashuv, biznes, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, texnologiya, iqtisodiy rivojlanish, startaplar, menejment, samaradorlik, bozor iqtisodiyoti, sun’iy intellekt, Big Data, IoT, strategik rivojlanish

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib, barcha sohalarda, xususan biznes faoliyatida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Global integratsiya natijasida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar kengayib, bozorlar o‘zaro bog‘lanib bormoqda. Bu esa korxonalar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirib, ularni doimiy ravishda yangilik yaratishga undamoqda. Bunday sharoitda innovatsiyalar biznesning asosiy rivojlanish omiliga aylanmoqda. Innovatsiya tushunchasi iqtisodiy nazariyada muhim o‘rin tutadi va u ilk bor Joseph Schumpeter tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Unga ko‘ra, innovatsiya iqtisodiy o‘shishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Globallashuv innovatsion jarayonlarning tezlashuviga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Avvalo, u ilmiy-texnik bilimlar va ilg‘or texnologiyalarning tezkor tarqalishini ta’minlaydi. Natijada, dunyoning turli nuqtalarida yaratilgan innovatsion g‘oyalar qisqa vaqt ichida boshqa mamlakatlarga ham yetib boradi. Shuningdek, globallashuv yangi bozorlarni ochadi va biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq bu jarayon bilan birga raqobat ham kuchayadi. Endilikda korxonalar nafaqat mahalliy, balki global kompaniyalar bilan ham raqobatlashadi. Bu esa innovatsiyani strategik zaruratga aylantiradi.

Globallashuv va innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida ko‘plab olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda ayniqsa iqtisodchi Joseph Schumpeter alohida o‘rin tutadi. U innovatsiyani iqtisodiy o‘shishning



Date: 5th May-2026

“harakatlantiruvchi kuchi” deb ta’riflab, tadbirkorni yangilik yaratuvchi asosiy subyekt sifatida ko’rsatadi. Shumpeter nazariyasiga ko’ra, iqtisodiy rivojlanish aynan innovatsion faoliyat orqali yuzaga keladi. Globallashuv jarayonini tahlil qilgan olimlardan yana biri Thomas Friedman bo’lib, u globallashuvni “dunyoning tekislanishi” deb izohlaydi. Uning fikricha, globallashuv natijasida barcha mamlakatlar uchun teng imkoniyatlar paydo bo’ladi, biroq bu jarayon raqobatni ham keskinlashtiradi. Shu sababli, kompaniyalar innovatsiyalar orqali ustunlikka erishishga intiladi.

Mashhur iqtisodchi Michael Porter esa o’zining raqobat ustunligi nazariyasida innovatsiyalarni kompaniya muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko’rsatadi. Uning fikricha, korxonalar innovatsiyalar orqali o’zining raqobatbardoshligini oshiradi va global bozorda yetakchi o’rinni egallaydi. Bundan tashqari, iqtisodchi Peter Drucker innovatsiyani tadbirkorlikning eng muhim vositasi deb hisoblaydi. Unga ko’ra, innovatsiya resurslarga yangi qiymat beradi va yangi imkoniyatlarni yaratadi. Drucker innovatsiyani tizimli va maqsadli faoliyat sifatida talqin qiladi.

Yana bir muhim olim Manuel Castells bo’lib, u axborot jamiyati nazariyasida globallashuv va texnologiyalar o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qiladi. Uning fikricha, zamonaviy iqtisodiyot axborot va bilimga asoslangan bo’lib, innovatsiyalar global tarmoqlar orqali rivojlanadi. Shuningdek, Paul Romer endogen o’sish nazariyasida bilim va innovatsiyalarni iqtisodiy o’sishning asosiy manbai sifatida ko’rsatadi. Uning ta’kidlashicha, yangi bilimlar yaratish orqali jamiyat barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishadi.

Innovatsiyalar biznesning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular korxonalariga ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Innovatsiyalarning turlari quyidagi asosiy yo’nalishlarda namoyon bo’ladi:

1. **Mahsulot innovatsiyasi**(texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) ishlab chiqishga hamda joriy etishga qaratilgan innovatsiyalar;)

2. **Jarayon innovatsiyasi**(texnik va texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish yoxud ta’lim usullarini ishlab chiqish va joriy etishga, shuningdek texnologiyalar transferini amalga oshirishga qaratilgan innovatsiyalar)

3. **Marketing innovatsiyasi**(mahsulotlarning dizayni va qadoqlaridagi o’zgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki takomillashtirilgan usullarni joriy etishga, mahsulotni (ishlarni va xizmatlarni) sotish va taqdim etishning yangi usullaridan foydalanishga, yangi narxlash strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsiyalar)

4. **Tashkiliy innovatsiya**(biznesni tashkil etish va yuritish, ish o’rinlarini tashkil etish va tashqi aloqalarni yo’lga qo’yishning yangi yoki takomillashtirilgan usullarini joriy etishga qaratilgan innovatsiyalardir)

Demak, har bir innovatsiyaning turlari o’z yo’nalishidan kelib chiqib biznes rivojiga o’ziga xos ta’sir ko’rsatadi. Masalan, mahsulot innovatsiyasi yangi bozorlarni egallashga yordam bersa, jarayon innovatsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Raqamli transformatsiya hozirgi davr innovatsiyalarining eng muhim ko’rinishlaridan biridir.



Date: 5th May-2026

Sun'iy intellekt, Big Data, IoT va bulutli texnologiyalar biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Masalan, Amazon kompaniyasi raqamli texnologiyalar orqali global savdo tizimini mukammallashtirdi. Shuningdek, Tesla innovatsion texnologiyalar yordamida avtomobil sanoatida yangi bosqichni boshlab berdi.

Raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni beradi:

- tezkor qaror qabul qilish
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish
- mijozlar bilan samarali aloqa
- yangi biznes modellari yaratish

Si bilan bizga ma'lumki innovatsiyalarni joriy etish jarayoni murakkab bo'lib, bir qator muammolar bilan bog'liq. Jumladan, moliyaviy resurslar yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi va yuqori risk darajasi asosiy to'siqlar hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi choralar muhim:

- a. davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
- b. investitsiyalarni jalb qilish
- c. ta'lim tizimini rivojlantirish
- d. innovatsion infratuzilmani yaratish

Sungi yillarda O'zbekistonda ham innovatsion rivojlanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, IT Park Uzbekistan faoliyati innovatsion biznesni rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Bu esa yosh tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Yurtimizda rivojlantirish mumkin bo'lgan asosiy biznes yo'nalishlari:

IT va startaplar (raqamli iqtisodiyot)

Qishloq xo'jaligi va agro-biznes (eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar)

Turizm va xizmat ko'rsatish sohasi

Sanoat va ishlab chiqarish (tekstil, avtomobilsozlik)

Logistika va transport xizmatlari

Innovatsiyalarni Davlat tomonidan qullab-quvvatlanishi natijasida ularga berilayotgan imtiyozlarni ko'rishimiz mumkin:

- kichik va o'rta biznes uchun soliq imtiyozlari;
- eksport qiluvchi korxonalar uchun rag'batlantiruvchi choralar;
- ayrim toifalar uchun bojxona va davlat bojlari bo'yicha chegirmalar;
- innovatsion loyihalar uchun investitsiya va grantlar;
- IT va sun'iy intellekt sohasida soliqsiz hududlar (maxsus zonalar) tashkil

etilishi.

O'zbekistonda globallashtirish va innovatsiyalar asosida biznesni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda; davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, investitsion muhitning yaxshilanishi va raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni yangi biznes g'oyalarni amalga oshirishga keng yo'l ochmoqda. Shu bois innovatsion yondashuvni tanlagan tadbirkorlar kelajakda eng katta muvaffaqiyatga erishadi.



Date: 5th May-2026

Xulosa qilib aytish mumkinki haqiqatdan ham Globallashuv sharoitida innovatsiyalar biznes rivojining asosiy drayveriga aylanib, mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa O'zbekiston misolida aytadigan bulsak, so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar, ochiqlik siyosati va investitsiyalarni jalb qilish orqali biznes muhitini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lib, sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi asosiy yo'nalishlar sifatida rivojlanmoqda. Shu bilan birga, mamlakat global investitsiyalar uchun jozibador hududga aylanib borayotganligi buning isboti bulib turibdi. Bu esa innovatsion biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Innovation in the Knowledge Economy (OECD) OECD (2004). Innovation in the Knowledge Economy: Implications for Education and Learning.
2. The Innovation–Growth Link in OECD Countries Innovation va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiluvchi ilmiy maqola.
3. The Role of Globalization in Innovation (ScienceDirect) Globallashuvning innovatsiyaga ta'siri bo'yicha xalqaro tadqiqot.
4. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2018 OECD (2018). Innovatsiya va texnologik rivojlanish bo'yicha global hisobot.
5. The Innovation Imperative (OECD Report) Innovatsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni haqida rasmiy hisobot.

